



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No7
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 48 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METHODS USED IN BUSINESS DECISION-MAKING	10
Ochildiev Bekhruz To'liqin o'g'li, Safarov Alisher	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING AMALIY TAHLILI O'ZBEKISTON MIQYOSIDA VA UNING XUFYONA JIHATI	15
Yuldasheva Nargiza Rashidovna, Koshanov Abdimurat Azat uli	
BIZNESDA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA KASBIY KOMMUNIKATSIYALAR	20
Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Normamatova Sitora Nozim qizi, Umida Yuldasheva Anasaliyevna	
ИНТЕГРАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЙ МОДЕЛИРОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИЕ ПО БУХГАЛТЕРСКОМУ УЧЁТУ: ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	25
Муратова Наргиза Тахировна	
MIGRATSIYA JARAYONLARI VA IQTISODIY TENGSIZLIK O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR XUSUSIYATLARI	30
E.T. Samadova, M.Sh.Raximova	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA MENEJMENTNING YANGI YONDASHUVLARI	36
Shoydulova Maftuna Zafar qizi, Meliyeva Nargiza Eshboyevna	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR	43
Nosirov Sabohiddin, Abdullayeva Mohiniso, Hafizullayev Javlon, Kasimova Zilola G'ulomiddinovna	



TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Nosirov Sabohiddin

Alfraganus universiteti Xalqaro munosabatlar
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Abdullayeva Mohiniso

Alfraganus universiteti Xalqaro munosabatlar
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Hafizullayev Javlon

Alfraganus universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

Kasimova Zilola G'ulomiddinovna

iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Alfraganus universiteti

“Xalqaro munosabatlar va tarix” kafedrasi mudiri

ORCID: 0000-0002-4447-2443

Email: zilola.gulomiddinovna@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining innovatsion rivojlanish yo'nalishlari, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri hamda xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan metodologik yondashuvlar tahlil qilingan. Tadqiqotda muammo holati, metodologik asoslar, tahliliy natijalar va xulosalar bayon etilgan. Maqolada raqamli transformatsiya, smart-turizm, elektron vizalar, sun'iy intellekt marketingi va ma'lumotlar analitikasi kabi zamonaviy tendensiyalar o'rganilgan. Olingan natijalar turizm innovatsiyalarining iqtisodiy samaradorlik, xizmat sifati hamda hududiy raqobatbardoshlikka ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: turizm, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, elektron viza, smart-turizm, iqtisodiy samaradorlik, barqaror rivojlanish.

Abstract: This article analyzes the directions of innovative development in the tourism sector of the Republic of Uzbekistan, their impact on economic efficiency, and the methodological approaches developed based on international experience. The study outlines the problem statement, methodological framework, analytical results, and conclusions. The article examines modern trends such as digital transformation, smart tourism, electronic visas, artificial intelligence-based marketing, and data analytics. The findings demonstrate that tourism innovations have a positive impact on economic efficiency, service quality, and regional competitiveness.

Key words: tourism, innovation, digital technologies, electronic visa, smart tourism, economic efficiency, sustainable development.

Аннотация: В данной статье анализируются направления инновационного развития туристической отрасли Республики Узбекистан, их влияние на экономическую эффективность, а также методологические подходы, разработанные на основе международного опыта. В исследовании раскрываются сущность проблемы, методологическая база, аналитические результаты и выводы. В статье рассматриваются современные тенденции, такие как цифровая трансформация, смарт-туризм, электронные визы, маркетинг на основе искусственного интеллекта и аналитика данных. Результаты показывают положительное влияние туристических инноваций на экономическую эффективность, качество услуг и региональную конкурентоспособность.

Ключевые слова: туризм, инновации, цифровые технологии, электронная виза, смарт-туризм, экономическая эффективность, устойчивое развитие.



KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi turizm sohasida sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Prezident Sh. M. Mirziyoyev 2023-yil 16-oktabr kuni Samarqand shahrida o'tkazilgan xalqaro sessiyadagi nutqida turizm sohasining O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rnini va istiqboliga alohida to'xtalib o'tdi. Davlat rahbari ta'kidlaganidek, "turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli tarmoqlaridan biri hisoblanadi"¹. Ushbu fikr mamlakatda turizmni innovatsion rivojlantirish, uning iqtisodiy o'sishdagi hissasini oshirish va xalqaro miqyosda O'zbekistonning turistik salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan siyosiy yondashuvni ifodalaydi.

Prezidentning ushbu fikrlari O'zbekistonda turizmni iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biri sifatida shakllantirish siyosiy va iqtisodiy jihatdan asoslanganligini ko'rsatadi. Bu yondashuv, avvalo, davlat tomonidan yaratilayotgan huquqiy, investitsion va infratuzilmaviy shart-sharoitlar orqali mustahkamlanmoqda. Jumladan, turizmni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan farmon va qarorlar, elektron viza tizimining joriy etilishi, "Smart Tourism" va "E-Tourism Portal" kabi raqamli loyihalarning yo'lga qo'yilishi bu yo'nalishda olib borilayotgan izchil islohotlarning dalilidir.

Global miqyosda ham turizm sohasida transformatsion jarayonlar kuzatilmoqda. BMT Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda xalqaro sayohatlar soni 1,3 milliardga yetgan bo'lib, bu pandemiyadan oldingi davrga nisbatan 87 foizlik tiklanishni anglatadi². O'zbekiston ham bu jarayonning faol ishtirokchisiga aylangan. Mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 2023-yilda 6,4 million nafarga yetgan (Stat.uz, 2024), bu esa 2021-yilga nisbatan 3,3 baravar ko'pdir³. Ushbu tadqiqot O'zbekistonda turizmni innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning amaliy mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Smart tourism va raqamli transformatsiya masalalari zamonaviy turizm innovatsiyalarining markazida turadi. D. Buhalis o'z tadqiqotlarida turizm hududlarini va mehmondo'stlik tizimini "aqlli" ekotizimga aylantirish konsepsiyasini ilgari suradi. Uning nuqtayi nazaricha, bu tizimning markazida o'zaro bog'liq platformalar, interoperabilitet va foydalanuvchi yo'nalishidagi personalizatsiya yotadi. Gretzel va hamkorlari esa smart turizmni texnologiya, ma'lumotlar almashinuvi va real vaqt rejimidagi moslashuvchan xizmatlar orqali sayyoh tajribasini yaxshilash tizimi sifatida izohlaydi. Ular smart turizmni besh asosiy qatlam — resurslar, infratuzilma, ma'lumotlar, xizmatlar va boshqaruv — orqali tahlil qiladi. Ushbu olimlarning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalar, IoT va sun'iy intellekt (AI) joriy etilishi orqali turistik destinatsiyalar xizmatlarni individuallashtirish, oqimlarni boshqarish va talab prognozini takomillashtirish imkoniga ega bo'ladi.

Texnologik imkoniyatlar bilan bir qatorda, turizm innovatsiyasiga yo'l ochuvchi institutsional va siyosiy mexanizmlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon miqyosidagi tahlillar turizmni tiklash va barqarorlashtirish strategiyalarida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash hamda investitsiyalarni rag'batlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu esa davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishni, siyosat va investitsion mexanizmlarni raqamli yechimlar bilan mahalliy madaniy resurslarni integratsiyalashga yo'naltirishni talab etadi.

Biroq barqarorlik va ekologik xavotirlar turizm innovatsiyalarini cheklovchi omillardan biri bo'lib qolmoqda. S. Gössling va hamkorlari turizmning iqlim o'zgarishlariga ta'siri va chiqindilarni kamaytirish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida modernizatsiya jarayonlarida ekologik omillarni inobatga olish zarurligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, har qanday texnologik yangilik atrof-muhit va ijtimoiy barqarorlik tamoyillari bilan uyg'un holda amalga oshirilishi lozim.

Bundan tashqari, adabiyotlarda smart tourism va raqamli transformatsiyani tanqidiy tahlil qiluvchi yondashuvlar ham mavjud. Williams va hamkorlari smart destinatsiyalar konsepsiyasi innovatsion bo'lishiga qaramay, ijtimoiy tengsizlik, ma'lumotlar monopoliyasi va madaniy merosning tijoratlashtirilishi kabi xavflarni keltirib chiqarishi mumkinligini qayd etadi. Ular texnologik yondashuvlar bilan bir qatorda ularning ijtimoiy, mehnat va siyosiy oqibatlarini ham o'rganish zarurligini urg'ulaydi. Kontogianni va hamkasblarining tahlillari esa smart turizmning ilmiy metodik asoslarini tizimlashtirib, kelgusidagi izlanishlar uchun tahliliy maydonni aniq belgilab beradi.

Ko'plab empirik tadqiqotlar turizmda raqamli notenglik, infratuzilma yetishmasligi, kadrlar malakasining pastligi va qonunchilikdagi nomuvofiqliklarni amaliy to'siq sifatida qayd etadi. Global xulosalar esa shuni ko'rsatadiki, texnologiyalarni joriy etish turizmning raqobatbardoshligini oshiradi, biroq bu jarayon muvaffaqiyatli kechishi uchun mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, ekologik cheklovlar va inson resurslari salohiyati hisobga olinishi zarur.

1 Mirziyoyev Sh.M. (2023). *Samarqand shahrida o'tkazilgan xalqaro sessiyadagi nutq*. Yuz.uz elektron nashri. 16 oktabr, 2023. URL: <https://yuz.uz/file/newspaper/7a76546a8bee4f7ccb0503cb06252836.pdf>

2 UNWTO (2024). *World Tourism Barometer*, Vol.22, Issue 1. Madrid: United Nations World Tourism Organization.

3 Stat.uz (2024). *O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi rasmiy hisobotlari*, www.stat.uz.



Xulosa qilib aytganda, adabiy manbalar turizmni rivojlantirishda innovatsiyalar — ayniqsa raqamli va intellektual yechimlar — katta imkoniyatlar yaratishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ularning muvaffaqiyati siyosiy iroda, investitsion faollik, ilg'or kadrlar tayyorlash va barqarorlik me'yorlariga amal qilish bilan chambarchas bog'liq. Ilmiy tafakkur texnologiyani o'z maqsadi sifatida emas, balki tadbirkorlik, madaniyat va ekologiyani uyg'unlashtiruvchi strategik vosita sifatida ko'rishni tavsiya etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston turizm sohasida innovatsion yondashuvlarning amaliyotga joriy etilishi va ularning samaradorligini baholashga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv ishlab chiqilgan. Tadqiqot metodologiyasi turizm tizimining ko'p qatlamli tuzilmasini, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillarni o'zaro bog'liq holda tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, u tizimli, statistik, SWOT va PEST tahlil usullarini o'z ichiga oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tizimli yondashuv turizm infratuzilmasining barcha elementlarini — transport-logistika tizimi, mehmonxona tarmog'i, axborot-kommunikatsiya platformalari, marketing kanallari hamda davlat boshqaruvi mexanizmlarini — yagona ekotizim sifatida o'rganishga imkon beradi. Ushbu metod asosida ishlab chiqilgan "Turizm innovatsion ekotizimi" modeli davlat siyosati, xususiy sektor va raqamli texnologiyalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi. Mazkur modelda Triple Helix konsepsiyasi⁴ hamda J. Schumpeterning innovatsion rivojlanish nazariyasi asosiy metodologik poydevor sifatida xizmat qiladi⁵. Ushbu tizimda davlat boshqaruvi strategik yo'nalishlarni belgilaydi, xususiy sektor innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etadi, ilmiy muassasalar esa ilmiy-analitik yechimlar bilan ta'minlaydi. Natijada "Smart Tourism" va "E-Governance" elementlarini o'z ichiga olgan integratsion model shakllanadi.

Tizimli tahlil yondashuvi turizm infratuzilmasining barcha elementlarini — transport, mehmonxona tarmog'i, axborot platformalari, marketing kanallari va boshqaruv tizimlarini — yagona ekotizim sifatida o'rganish imkonini beradi. Tadqiqot davomida O'zbekiston turizm tizimining innovatsion salohiyati SWOT modeli yordamida baholandi. Kuchli tomonlar sifatida davlat siyosiy qo'llab-quvvatlovi, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi va boy madaniy meros resurslari qayd etilgan. Zaif tomonlar esa kadrlar salohiyatining yetarli emasligi, hududlar o'rtasidagi raqamli tafovut hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining past ulushi bilan izohlanadi. Imkoniyatlar sifatida xalqaro hamkorlik dasturlarining kengayishi, yoshlar startaplarining o'sishi va ekologik turizmga bo'lgan talabning ortishi qayd etilgan. Tahdidlar esa pandemik xavflar, global raqobatning kuchayishi hamda mintaqaviy infratuzilma cheklavlari bilan bog'liq.

SWOT tahlil natijalariga asoslanib, O'zbekiston turizmida innovatsion rivojlanishni jadallashtirish maqsadida bir qator strategik yo'nalishlar ishlab chiqilgan. Birinchidan, hududiy innovatsion markazlar tarmog'ini yaratish orqali turizmida ilmiy-tadqiqot, startap va biznes-inkubatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash zarur. Ikkinchidan, turizm boshqaruvida sun'iy intellekt asosida qaror qabul qilish tizimlarini joriy etish turizm oqimini prognozlash, xizmatlar sifatini monitoring qilish va marketing samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, mahalliy brendlarni ilgari surish maqsadida raqamli marketing infratuzilmasini kuchaytirish, xususan, "digital storytelling" va "destination branding" yondashuvlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologik asoslarning bunday uyg'unligi O'zbekiston turizm sektorida innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishning ilmiy asoslangan mexanizmlarini aniqlash imkonini berdi. Natijada, "Turizm innovatsion ekotizimi" modeli asosida turizm raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

Iqtisodiy omillar nuqtayi nazaridan, 2024-yilda turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 4,7 foizni tashkil etib, bu 2016-yilga nisbatan ikki baravar ko'pdir. Ijtimoiy omillar kesimida yoshlar va xotin-qizlar startaplarining soni 2020–2024-yillar davomida 2,8 baravar oshgan. Texnologik omillar nuqtayi nazaridan esa "Smart Destination" va "AI-based Tourism Analytics" tizimlarining ishlab chiqilishi raqamli transformatsiya jarayonini tezlashtirmoqda.

PEST tahlil metodikasi global miqyosda turizm siyosati, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy tendensiyalar hamda texnologik innovatsiyalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tahlil qilishda keng qo'llaniladigan strategik instrument hisoblanadi (Kotler et al., 2017). O'zbekiston tajribasida esa ushbu model milliy turizm siyosatini innovatsion transformatsiya kontekstida baholash hamda barqaror turizmni rivojlantirish strategiyasini shakllantirish uchun metodologik asos sifatida xizmat qilmoqda.

4 Etzkowitz H., & Leydesdorff L. (2000). *The Dynamics of Innovation: From National Systems and "Mode 2" to a Triple Helix of University–Industry–Government Relations*. Research Policy, 29(2), 109–123.

5 Schumpeter, J.A. (1934). *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press.



Siyosiy omillar turizmning innovatsion rivojlanishiga eng muhim tashqi ta'sir ko'rsatuvchi komponentlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar turizmni milliy ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.07.2023 yildagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-son⁶li qarorda turizm raqamli boshqaruv tizimini rivojlantirish, "E-Visa" va "E-Tourism Portal" platformalarini kengaytirish vazifalari belgilab berilgan.

Shu tariqa, siyosiy omillar innovatsion turizm ekotizimining shakllanishida asosiy harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qilmoqda. Bu jarayon davlat siyosati, xususiy sektor va texnologik innovatsiyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlaydigan "Triple Helix" modelining amaliy ifodasini yaratmoqda⁷.

Iqtisodiy omillar turizm innovatsiyalarining moliyaviy asosini belgilaydi. 2016–2024-yillar oralig'ida O'zbekiston turizm sohasida iqtisodiy ko'rsatkichlar sezilarli o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Jumladan, turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2,3 foizdan 4,7 foizga yetgan⁸. Xorijiy turistlardan tushgan tushum 0,54 milliard AQSH dollaridan 2,1 milliard dollarga oshgan. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda turizm sohasi har yili o'rtacha 12,8 foizlik iqtisodiy o'sish sur'atini ko'rsatmoqda, bu esa Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir. Shuningdek, 2020–2024-yillarda xorijiy investitsiyalar hajmi ortgan bo'lib, bu "Invest in Tourism Uzbekistan" dasturi doirasida chet el sarmoyadorlari uchun soliq va bojxona imtiyozlarining kengaytirilgani bilan bog'liq⁹.

Iqtisodiy omillar tarkibida raqamli turizm xizmatlari bozori ham alohida ahamiyat kasb etadi. 2023-yilda onlayn bronlash, raqamli gid xizmatlari va "smart payment" tizimlarining ulushi umumiy turistik xizmatlarning 35 foizini tashkil etgan¹⁰. Bu esa turizm innovatsion yechimlarning moliyaviy samaradorligini sezilarli darajada oshirganini ko'rsatadi.

Ijtimoiy omillar turizmning rivojlanishida inson kapitali, demografik tarkib, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy innovatsiyalar darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. 2020–2024-yillar davomida O'zbekistonda yoshlar va xotin-qizlar tomonidan tashkil etilgan turizm startaplari soni 2,8 baravar oshgani kuzatilgan¹¹. Bu holat mamlakatda ijtimoiy faollikning ortib borayotgani, yangi avlod tadbirkorlarining turizm ekotizimida faol ishtirok etayotganini ko'rsatadi¹².

Bu jarayon ijtimoiy inkluziya va gender tengligini mustahkamlashga, shuningdek, turizm "social entrepreneurship" konsepsiyasini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Aholining 60 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil etgani sababli, turizm sohasida yangi g'oyalar, kreativ xizmatlar va ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan brendlar paydo bo'lmoqda¹³.

Ijtimoiy innovatsiyalar, xususan, "mahalliy brendlashuv" (local branding), "eko-turizm" va "community-based tourism" (CBT) kabi shakllar turizmning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda¹⁴. Shu bilan birga, madaniy merosning qayta talqin qilinishi va milliy qadriyatlar asosida kontent ishlab chiqish turizm marketingining ijtimoiy komponentini kuchaytirmoqda.

So'nggi yillarda texnologik omillar turizm innovatsion transformatsiyasining asosiy drayveri sifatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, "Smart Destination" tizimi sun'iy intellekt (AI), raqamli tahlil (Big Data) va geolokatsiya asosidagi servislar orqali sayyohlarning ehtiyojlarini real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini bermokda. Shuningdek, "E-Tourism Portal", "Digital Heritage", "Virtual Museum", "AI-based Tourist Analytics" va "Chatbot Travel Assistant" kabi raqamli yechimlar ishlab chiqilgan. Bunday texnologiyalar turizm xizmatlarining sifatini oshirib, turistlar tajribasini individuallashtirish imkonini yaratmoqda.

Texnologik innovatsiyalar, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasidan so'ng, xavfsizlik, masofaviy xizmat ko'rsatish va onlayn marketing tizimlarining muhimligini yanada oshirdi. Shu tariqa, raqamli transformatsiya O'zbekiston turizmini yangi bosqichga olib chiqmoqda va mintaqaviy raqobatbardoshlikni ta'minlayotgan asosiy omilga aylanmoqda.

Innovatsion yondashuvlar nafaqat texnologik, balki ekologik barqarorlikni ham o'z ichiga olmoqda. JST tavsiyalariga binoan, O'zbekiston 2025-yilgacha "Green Tourism" dasturi doirasida 100 ta ekologik yo'nalish yaratishni maqsad qilgan edi. Hozirda eko-mehmonxonalar, chiqindisiz marshrutlar va quyosh energiyasida

6 <https://lex.uz/ru/docs/-6549286>

7 Etzkowitz, H., & Leydesdorff, L. (2000). The dynamics of innovation: From National Systems and "Mode 2" to a Triple Helix of university-industry-government relations. *Research Policy*, 29(2), 109–123.

8 Davlat statistika qo'mitasi (2024). O'zbekiston Respublikasi turizm ko'rsatkichlari. www.stat.uz

9 WTTC (2024). *Travel & Tourism Economic Impact 2024: Uzbekistan Country Report*. World Travel & Tourism Council.

10 World Bank (2023). *Uzbekistan Economic Update: Tourism and Digital Transformation*. Washington, D.C.: World Bank.

11 OECD. (2023). *Tourism Trends and Policies: Digitalization in Central Asia*. OECD Publishing, Paris.

12 Elmurodov, T.S. (2023). Social Innovations and Gender Inclusion in Tourism Startups in Uzbekistan. *Journal of Central Asian Development Studies*, 5(1), 44–52.

13 Richards, G. (2022). Cultural Tourism and Local Development: The Role of Social Innovation. *Tourism Management Perspectives*, 44, 101037.

14 GSTC. (2022). *Global Sustainable Tourism Criteria and Implementation Framework*. Global Sustainable Tourism Council.



ishlovchi transport vositalari loyihalari joriy etilmoqda. Bu, bir tomondan, turizmning ekologik izini kamaytirsa, ikkinchi tomondan, global barqaror rivojlanish maqsadlariga mos keladi.

PEST tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston turizm sohasining innovatsion rivojlanishiga siyosiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish sur'atlari, ijtimoiy kapitalning faolligi va texnologik modernizatsiya jarayonlari ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu omillar o'zaro integratsiyalashgan holda "Turizm innovatsion ekotizimi" shakllanishini ta'minlab, sohani uzoq muddatli barqaror rivojlanish yo'liga olib chiqmoqda.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari O'zbekiston turizm sohasida innovatsion rivojlanishni jadallashtirish uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladigan muhim ilmiy xulosalarni yuzaga chiqardi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan "Turizm innovatsion ekotizimi" modeli davlat boshqaruvi, xususiy sektor va ilmiy muassasalar o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni kuchaytirish orqali raqamli iqtisodiyot samaradorligini oshirishga xizmat qilishi isbotlandi. Bunday yondashuv Triple Helix konsepsiyasiga (Etzkowitz & Leydesdorff, 2000) mos ravishda innovatsion muhitni shakllantirishda institutsional uyg'unlik muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan muhim xulosalardan biri shundaki, raqamli transformatsiya siyosatining barcha hududlarda samarali amalga oshirilishi — xususan, elektron viza tizimi, sun'iy intellekt asosidagi tahlil platformalari va smart-turizm texnologiyalarining keng joriy etilishi — turistlar oqimini barqaror tarzda oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, ma'lumotga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini kuchaytirish zaruriyati ham o'z tasdig'ini topdi. Turizm tarmog'ida "Tourism Data Hub" singari ma'lumotlar platformasini kengaytirish, sayyohlar oqimi, sarf-xarajat strukturalari va geografik afzalliklar asosida Big Data tahlilini amalga oshirish orqali marketing va logistika strategiyalarini avtomatlashtirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, xizmatlar sifati va tezkor qaror qabul qilish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Bundan tashqari, hududiy tafovutlarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida turizmda texnologik infratuzilmani har bir viloyatda izchil rivojlantirish, hududiy startaplarni qo'llab-quvvatlash hamda ekologik turizmni kengaytirish zarurligi ta'kidlandi. "Yashil energiya" asosidagi ekoturizm yo'nalishlari, chiqindisiz marshrutlar va barqaror mehmonxona xizmatlari xalqaro standartlar asosida joriy etilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot asosida ishlab chiqilgan "Turizm innovatsion ekotizimi" konsepsiyasi O'zbekiston milliy turizm siyosatini innovatsion, raqamli, barqaror va inklyuziv tamoyillar asosida yangidan shakllantirish uchun konseptual poydevor yaratadi. Ushbu model nafaqat ichki va tashqi turistlar oqimini oshirish, balki xalqaro bozorda raqobatbardosh turizm brendini shakllantirish, turizm yuqori texnologiyali boshqaruvni joriy etish hamda mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish vazifalarini qamrab oladi.

Bu esa O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi raqamli turizm markazi sifatida shakllantirish uchun zarur ilmiy va strategik asoslarni yaratadi. Natijada, bu jarayon iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xizmatlar eksportini kengaytirish va yangi ish o'rinlari yaratish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. (2023). Samarqand shahrida o'tkazilgan xalqaro sessiyadagi nutq. Yuz.uz elektron nashri. 16 oktabr, 2023. URL: <https://yuz.uz/file/newspaper/7a76546a8bee4f7ccb0503cb06252836.pdf>
2. UNWTO (2024). World Tourism Barometer, Vol.22, Issue 1. Madrid: United Nations World Tourism Organization.
3. Stat.uz (2024). O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi rasmiy hisobotlari, www.stat.uz.
4. Etzkowitz H., & Leydesdorff L. (2000). The Dynamics of Innovation: From National Systems and "Mode 2" to a Triple Helix of University–Industry–Government Relations. Research Policy, 29(2), 109–123.
5. Schumpeter, J.A. (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2021). PQ–268-sonli qaror "Turizmni rivojlantirishning yangi bosqichi to'g'risida", 5-aprel. Lex.uz: <https://lex.uz>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2020). PQ–238-sonli qaror "Sayyohlik xizmatlari eksportini oshirish va raqamli boshqaruvni joriy etish chora-tadbirlari", 23-iyun. Lex.uz: <https://lex.uz>
8. WTTC (2024). Travel & Tourism Economic Impact 2024: Uzbekistan Country Report. World Travel & Tourism Council.
9. World Bank (2023). Uzbekistan Economic Update: Tourism and Digital Transformation. Washington, D.C.: World Bank.
10. OECD. (2023). Tourism Trends and Policies: Digitalization in Central Asia. OECD Publishing, Paris.
11. Elmurodov, T.S. (2023). Social Innovations and Gender Inclusion in Tourism Startups in Uzbekistan. Journal of Central Asian Development Studies, 5(1), 44–52.
12. Richards, G. (2022). Cultural Tourism and Local Development: The Role of Social Innovation. Tourism Management Perspectives, 44, 101037.
13. GSTC. (2022). Global Sustainable Tourism Criteria and Implementation Framework. Global Sustainable Tourism Council.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

7-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>